

SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSI ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING DEONTOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV MEKANIZMLARI

ИНТЕГРАТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ДЕОНТОЛОГИ- ЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ НАСЛЕДИЯ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА

INTEGRATIVE MECHANISMS FOR DEVELOPING THE DEONTOLOGICAL CULTURE OF FUTURE EDUCATORS BASED ON THE HERITAGE OF EASTERN THINKERS

ISMAILOVA NILUFAR ISROILDJANOVNA

Namangan davlat pedagogika instituti, maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Maqolada Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy) merosi asosida bo‘ljak pedagoglarning kasbiy deontologik madaniyatini shakllantirish yoritilgan. Tadqiqotda "kompetensiyadan madaniyat sari" tamoyili asosida qoidalarni bilish har doim ham ichki madaniyatni belgilamasligi isbotlangan. Shuningdek, sharqona tarbiya va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi orqali talabalarda kasbiy identitet va deontologik kompetentlikni shakllantirishning samarali yo‘llari taklif etilgan..

Kalit so‘zlar: kasbiy deontologiya, deontologik madaniyat, kasbiy deontologik kompetentlik, pedagogik identitet, Sharq mutafakkirlari, integrativ yondashuv, pedagogik etika, kasbiy madaniyat, mutaxassis qiyofasi.

Аннотация. В статье рассматривается формирование деонтологической культуры будущих педагогов на основе наследия мыслителей Востока (Фараби, Беруни, Ибн Сина, Навои). На основе принципа «от компетенции к культуре» доказано, что знание правил не всегда означает высокую внутреннюю культуру. Проанализирована интеграция восточного воспитания и современных технологий в развитии профессиональной идентичности, предложены пути внедрения деонтологической компетентности в сознание студентов

Ключевые слова: профессиональная деонтология, деонтологическая культура, профессиональная деонтологическая компетентность, педагогическая идентичность, мыслители Востока, интегративный подход, педагогическая этика, профессиональная культура, облик специалиста.

Abstract. The article examines shaping the deontological culture of future educators based on the heritage of Eastern thinkers (Al-Farabi, Al-Biruni, Ibn Sina, Navoi). Applying the "from competence toward culture" principle, it proves that knowing rules does not guarantee high inner culture. The study analyzes the integration of Eastern upbringing and modern technologies in developing students' professional identity, proposing ways to embed deontological competence into their consciousness

Keywords: professional deontology, deontological culture, professional deontological competence, pedagogical identity, Eastern thinkers, integrative approach, pedagogical ethics, professional culture, professional image.

Kirish

"Bugungi globalashuv va raqamli texnologiyalar asrida bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat intellektual salohiyati, balki ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, ya'ni deontologik madaniyati ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Pedagogik deontologiya — bu o'qituvchining o'z kasbiga nisbatan burchi, mas'uliyati va etikasini belgilovchi fan bo'lib, u shaxsning kasbiy identiteti (o'zini mutaxassis sifatida his qilishi) bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbekiston ta'lim tizimida uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonida buyuk ajdodlarimizning pedagogik qarashlariga tayanish davr talabidir. Xususan, Abu Nasr Forobiyning muallim odobi haqidagi o'gitlari, Ibn Sinoning shogird bilan muloqot madaniyati hamda Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasi bugungi bo'lajak pedagoglar uchun kasbiy etalon (namuna) vazifasini o'taydi. Ushbu maqolaning maqsadi — tarixiy merosdagi ma'naviy javohirlarni zamonaviy pedagogik jarayonga integratsiya qilish orqali bo'lajak ustozlarning deontologik tayyorgarligini oshirish mexanizmlarini ilmiy asoslab berishdan iborat.

Asosiy qism.

Kasbiy "shaxsiyatsizlik" (Identitet inqirozi) muammosi Hozirgi kunda ta'lim sohasida "Ta'lim — bu servis (xizmat ko'rsatuvchi)" degan yondashuvning kuchayishi pedagogning ijtimoiy maqomi va o'z-o'zini anglashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Rivojlangan davlatlar (Finlandiya, Singapur, Yaponiya) va bizdagi "xizmat ko'rsatuvchi xodim" tushunchasini qiyosiy tahlil qilsak, vaziyat quyidagicha ko'rinadi: "Xizmat ko'rsatuvchi xodim" (Service Provider) modeli muammosi-Agar yosh pedagog o'zini shunchaki xizmat ko'rsatuvchi deb bilsa, quyidagi salbiy

o'zgarishlar sodir bo'ladi:

- Mas'uliyatning kamayishi: "Mening vazifam faqat ma'lumotni yetkazish, uni o'zlashtirish esa mijozning (o'quvchi/ota-onaning) ishi" degan sovuq munosabat paydo bo'ladi.

- Ma'naviy bo'shliq: Ta'limdan "tarbiya" va "axloq" komponentlari chiqib ketadi.

- Kasbiy charchash (Burnout): Xizmat ko'rsatuvchi xodim sifatida u o'zini doimiy ravishda "mijoz" (raxbar, ota-ona)ning injiqliklariga qaram deb hisoblaydi va kasbiy g'ururni yo'qotadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasida "Pedagog — bu "Ijtimoiy muhandis" bo'lib, bo'lajak pedagoglarga o'zini "xizmat ko'rsatuvchi" emas, balki "Avtonom tadqiqotchi va jamiyat me'mori" sifatida qarash o'rgatiladi, ayrim davlatlar misolida ko'radigan bo'lsak;

- Finlandiya: Pedagog — tadqiqotchi (Teacher as a Researcher)-Finlandiyada o'qituvchi o'zini "ko'rsatma bajaruvchi" emas, balki o'z darsining akademik egasi deb biladi. Ular ta'limga xizmat emas, balki professional ekspertiza sifatida qarashadi. Shifokor bemorga qanday "xizmat" ko'rsatmasa (balki davolasa), fin o'qituvchisi ham shunday professional maqomga ega.

- Yaponiya: "Sensei" (Avval tug'ilgan/ Ustoz) fenomeni- Yaponiyada pedagog — bu jamiyatning axloqiy kompasidir. Bo'lajak pedagoglar o'zlarini "Ikigai" (hayot mazmuni) doirasida ko'rishadi. Ular shunchaki dars o'tmaydi, balki o'quvchining hayot yo'lini shakllantiradi. Bu yerda "xizmat" so'zi emas, "fidoiylilik" tushunchasi ustuvor.

- Singapur: "Ta'lim — milliy xavfsizlik va taraqqiyot garovi"-Singapurda o'qituvchi o'zini davlatning kelajakdagi iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi strategik kadr deb

hisoblaydi. Ular o'zlarini "oddiy xodim" emas, balki "inson kapitalini yaratuvchi mutaxassis" (Engineers of Humanity) deb bilishadi.

Bu taxlillar orqali biz quyidagi muammo yechini yoritamiz:

1. Kasbiy "shaxsiyatsizlik" (Identitet inqirozi) muammosi- Hozirgi kunda ko'plab yosh pedagoglar o'zini shunchaki "xizmat ko'rsatuvchi xodim" deb hisoblashi yechimlaridan biri Sharq mutafakkirlari (Navoiy, G'azzoliy) asarlaridagi "Ustozlik — muqaddas burch" g'oyasi talabada kasbiy g'urur va identitetni shakllantiradi. Talaba o'zini jamiyatning ma'naviy ustuni deb anglay boshlaydi.

2. Pedagogik faoliyatdagi "quruq" texnokratizm- Ta'limda faqat raqamlar, natijalar va texnologiyalarga berilib ketish o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi insoniy rishtalarni uzib qo'yimoqda, buning yechimi esa Sharqona deontologiyadagi "Qalb tarbiyasi" va "Mehr" tamoyillari ta'limga insoniylikni (humanizm) qaytaradi. Bu esa o'qituvchi va talaba o'rtasidagi "sovuqlik" muammosini hal qiladi.

3. Etik nigilizm va korrupsion xavflar -Kasbiy burch va mas'uliyatni his qilmaslik turli axloqiy buzilishlarga (adolatsiz baholash, ta'magirlik) olib keladi buning yechimi esa Deontologik madaniyatning rivojlanishi — pedagogning "ichki filtri" yoki "ma'naviy immuniteti" ni hosil qiladi. Forobiy aytganidek, "adolatni sevuvchi" pedagog tashqi nazoratsiz ham halol ishlaydi.

4. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilish -Ko'p hollarda talabalar oliy dargohda etika haqida eshitishadi, lekin ish joyiga borganda muammoli vaziyatlarda o'zini yo'qotib qo'yishadi. Tadqiqotdagi "Integrativ mexanizm" (masalan, Sharq hikmatlari asosidagi keyslar) talabada amaliy deontologik kompetentsiyani shakllantiradi.

Ya'ni, u "nima qilish kerakligini" emas, "qanday qilish kerakligini" o'rganadi.

- Deontologik Kompetentsiya (Amaliy ko'nikma) - Bu tushuncha ko'proq "nimalarni bilishi va qila olishi kerak?" degan savolga javob beradi. U pedagogik faoliyatdagi aniq standartlar va malakalarni ifodalaydi. Buning mohiyati kasbiy burch va etika qoidalarini amalda qo'llash qobiliyati. Xususiyati o'lchash mumkin bo'lgan natija. Masalan, pedagogning nizoli vaziyatda o'zini tuta olishi, qonun-qoidalarini bilishi. Tarkibi: Bilim, ko'nikma va malakalar majmui. Agar o'qituvchi pedagogik etika kodeksini yoddan bilsa dars jarayonida o'quvchilarga nisbatan adolatli baholash mezonlarini qo'llay oladi.

- deontologik madaniyat (ma'naviy holat)- bu tushuncha ancha kengroq bo'lib, nafaqat bilimni, balki shaxsning ichki e'tiqodi, dunyoqarashi va qadriyatlarini o'z ichiga oladi. uning mohiyati kasbiy burch va mas'uliyatning shaxsiy sifatga, hayotiy e'tiqodga aylangan darajasidir. deontologik madaniyatning xususiyati: barqarorlik. madaniyatli inson nazorat bo'lmagan joyda ham etik qoidalarga amal qiladi, chunki bu uning tabiati. Deontologik madaniyat tarkibi- etik bilimlar + kasbiy g'urur + ma'naviy ehtiyoj + vijdon. O'qituvchi o'z kasbini muqaddas deb biladi, o'quvchi shaxsini hurmat qilish uning uchun shunchaki "qoida" emas, balki ichki ehtiyoj (tabiiy holat).

Sharq Renessansi mutafakkirlarining asarlarida "deontologiya" yoki "identitet" terminlari zamonaviy ko'rinishda ishlatilmagan bo'lsa-da, ularning mohiyati — kasbiy mas'uliyat, axloqiy burch va o'qituvchining o'zligini anglashi haqida bebaho fikrlar mavjud. Xulosa qilib aytganda, Sharq mutafakkirlari merosini integrativ asosda o'rganish — bu shunchaki o'tmishga qaytish emas, balki kelajak pedagogining ma'naviy-etik modelini yaratishdir. Bu

yondashuv pedagogik faoliyatdagi ma'naviy ustozlarda kasbiy mas'uliyatni e'tiqod bo'shliqlarni to'ldirishga va bo'lajak darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi.

Farqlash mezonlari	Deontologik Kompetentsiya	Deontologik Madaniyat
Savol	Nimalarni biladi va bajara oladi?	Kim u o'zi? Qanday inson?
Darajasi	Kasbiy tayyorgarlik darajasi.	Shaxsning ma'naviy-axloqiy kamoloti.
Shakllanishi	O'qish va mashqlar orqali tezroq shakllanadi.	Uzoq muddatli tarbiya va o'z-o'zini anglash mahsuli.
Natija	Samarali faoliyat ko'rsatish vositasi.	Shaxsiy-kasbiy hayot tarzi.

Demak, Kompetentsiya — bu bo'lmasligi mumkin (u faqat nazorat bor madaniyatning tarkibiy qismi va uning joydagina qoidalarga amal qilishi mumkin). amaldagi ko'rinishidir. Ya'ni, insonning Tadqiqot ishimizda "kompetentsiyadan deontologik madaniyati yuqori bo'lsa, u madaniyat sari" tamoyilini ilgari surdik va albatta kompetentli bo'ladi. Ammo shunchaki "Sharqona deontologiya" jadvalii ishlab qoidalarni biladigan (kompetentli) odamning chiqdik; har doim ham ichki madaniyati yuqori

Mutafakkirlar	Deontologik tamoyil (G'oya)	Zamonaviy pedagogikaga tatbiqi
Abu Nasr Forobiy	"Muallim — haqiqatni sevishi lozim "Fozil odamlar shahri" asarida muallimlik san'ati va deontologik talablar. (Forobiyning muallim uchun belgilagan 12 ta fazilati asosida).	Akademik halollik va adolat tamoyili.
Ibn Sino	"Tarbiyachi — o'z nafsini tiya bilishi"	Pedagogik bosiqlik va emotsional intellekt.
Alisher Navoiy	"So'zi va amali bir bo'lmoq" komil inson va murabbiy obrazi: axloqiy burch mezonlari. ("Mahbub ul-qulub" asari misolida).	Shaxsiy namuna va kasbiy sadoqat.
Imom G'azzoliy	"Shogirdga mehr ko'rsatish" "Ithyou ulumid-din" asarida muallimning o'z-o'zini tarbiyalashi va kasbiy kamoloti.	Bolaga yo'naltirilgan ta'lim (Child-centered).

Forobiy o'qituvchini "Madina" (shahar/ jamiyat) rahbari bilan tenglashtiradi va uning deontologik qiyofasini shunday ta'riflaydi: "Muallim va rahbar shogirdlarga nisbatan qattiqqo'llikda haddan oshmasligi, shuningdek, haddan tashqari yumshoq ham bo'lmasligi lozim. Chunki haddan tashqari qattiqqo'llik shogirdni o'z ustoziga nisbatan dushmanlik hissini uyg'otishiga, haddan

ortiq yumshoqlik esa muallimning qadrini tushirib, berayotgan bilimlari shogird tomonidan mensilmasligiga olib keladi." [3]

Ibn Sino o'qituvchining kasbiy identitetini uning xulq-atvori va bolaga bo'lgan samimiy munosabati orqali belgilaydi: "Bolaga ta'lim-tarbiya beruvchi kishi bosiq, daryodil, pokiza, xushaxloq bo'lmog'i darkor. U bolaga bilim berar

ekan, buni shunchaki vazifa deb emas, balki o'zining hayotiy burchi deb bilishi, bolaning ruhiyatiga kirib borish yo'llarini izlashi lozim." [4]

Beruniy pedagog va tadqiqotchi uchun eng asosiy deontologik sifat — bu haqiqatga sadoqat ekanini ta'kidlaydi: "Olim va muallimning vazifasi — haqiqatni yolg'ondan ajratish, shubhalardan qutulish va o'z nafsiga qul bo'lmaslikdir. Bilimni o'zganing ko'nglini ovlash yoki mol-dunyo orttirish uchun emas, balki insoniyatga xizmat qilish uchun bermoq kerak." [5]

Deontologiya tushunchasiga eng yaqin bo'lgan "vazifaga sadoqat" g'oyasi "Qutadg'u bilig"da yaqqol ko'rinadi: "Bilimli kishi kishiga bilimini bersin, toki bu bilim bilan o'zga insonlar ham kamol topsin. Tilini va ko'nglini to'g'ri tutmagan muallim, o'zgasiga yo'l ko'rsata olmaydi." [4]

Forobiy o'zining fozil jamoasida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlariga bo'ladi. Bunda u, kishilarning diniy mashabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga,

aqliy iqtidoriga, bilim ko'nikmalariga e'tibor berishlik zarur deydi. U o'zning «Baht saodatga erishuv yo'llar haqida risola» asarida «Davlatning vazifasi insonlarni baxt — saodatga olib borishdir, — deb yozadi. U, — bu esa ilm va yahshi ahloq yordamida qo'lga kiritadi». Forobiy davlatni yetuk shaxs boshqarishi lozim deydi; ya'ni jamoani idora etuvchi adolatli, dono bo'lishi, qonunlarga rioya etishi va qonunlar yarata olishi, kelgusini oldindan ko'ra bilishi, boshqalarga g'amxo'r bo'lishi lozim deydi.

Bo'lajak pedagogning shakllanishi faqatgina bilimlar majmuasi (kompetensiya) emas, balki uning ichki madaniyati va o'zini anglash (identitet) jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. Sharq renessansi mutafakkirlarining boy merosi (Forobiy, Ibn Sino, Navoiy) zamonaviy deontologiya uchun ma'naviy poydevor bo'lib xizmat qiladi. "Kompetentsiyadan madaniyat sari" tamoyili talabani quruq qoidalarni yodlashdan, ularni shaxsiy e'tiqodiga aylantirishga o'tishini ta'minlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. Abdullaeva Sh.A. Pedagogik deontologiya va mahorat. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. — 160 b.
2. Inomova M. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. — Toshkent: TDPU, 2005.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. — 224 b.
4. Abu Ali ibn Sino. Tadbiri manzil (Uy xo'jaligini boshqarish). — Toshkent: O'zbekiston, 2010.
5. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I jild. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. — Toshkent: Fan, 1968.
6. Alisher Navoiy. Hayratul-abror (Mukammal asarlar to'plami, 7-jild). — Toshkent: Fan, 1991.
7. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (Saodatga yo'llovchi bilim). — Toshkent: Yulduzcha, 1990. — 250 b.
8. Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. — New York: Norton & Company, 1968. (Pedagogik identitet nazariyasi uchun).
9. Beauchamp C., Thomas L. Understanding teacher identity: An overview of issues in the literature and implications for teacher education. — Teaching and Teacher Education, 2009.
10. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет.қўлл. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иноғомова. — Т.: ТДПУ, 2012, 93-107-б.